O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22

2023 - yil 28 - oktabr 366-12-0-Q/23 Xorazm viloyati hokimligi

Urganch va Xiva shaharlari hududida yo‘lovchilar tashish transporti xizmatlariga yangi tariflarning joriy qilinishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarorining ijrosini ta’minlash hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-sentabrdagi 01-8-38/1272-sonli (xulosa) xatini inobatga olib, Urganch va Xiva shaharlarida umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lkira haqini to‘lashda transport kartalaridan foydalanuvchi yo‘lovchilar qamrovini oshirish va tabaqalashgan tariflar joriy etish orqali shahar yo‘lovchilar transporti korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirish, yo‘lovchi tashishdan ko‘rilayotgan zarar miqdorini kamaytirish va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining muntazam shahar avtobus yo‘nalishlarida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

Urganch shahrida avtobus yo‘nalishlarining yangi tarmog‘i joriy etilishi,

avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi va avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatining bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi ta’minlanishi;

muntazam shahar avtobus yo‘nalishida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish tizimining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi ta’minlanishi;

jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lovlarni ommalashtirish maqsadida bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tariflar qo‘llanilishi;

yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan foydalanishda, uning turidan qat’i nazar, kunlik, bir, uch va olti oylik, yillik cheklangan va cheklanmagan tarif rejalari joriy etilishi;

yo‘nalishlarda yo‘lkira uchun naqd pulda to‘lovlar bo‘yicha tariflarni qayta ko‘rib chiqish va ularning elektron to‘lov tarifiga nisbatan 30 foizga yuqori etib belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroridagi topshiriqlarni, bajarish ko‘rsatilayotgan sifat xizmatlarini oshirish hamda avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida 2023-yil 1-noyabrdan yo‘nalishlarda yo‘lkira uchun naqd pulda to‘lovlar bo‘yicha tariflarni qayta ko‘rib chiqish va ularni elektron to‘lov tarifiga nisbatan 30 foizga yuqori etib belgilanish tizimi joriy etilishiga ruxsat berilsin.

Bunda:

Urganch va Xiva shaharlarida hududida shahar yo‘lovchi transporti – avtobus qatnovlarini amalga oshirish uchun cheklangan tariflar:

a) bir yo‘lovchi uchun qatnov naqd pul orqali amalga oshirilganda cheklangan tarif – 2 000 (ikki ming) so‘m;

b) bir yo‘lovchi uchun qatnov elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilganda 1 martalik cheklangan tarif – 1 600 (bir ming olti yuz) so‘m; *(Xiva shahri bundan mustasno)*

d) qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan, tarif rejalarining narxlari 1-ilovaga va transport kartalaridan foydalanilganda almashish tariflari 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat transport boshqarmasi (R.Babayev) mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari va ekspertlarni jalb qilgan holda:

a) aholi orasida: yangi tashkil etiladigan jamoat transporti yo‘nalishlarining afzalligi, qulayligi, tezkorligi hamda muntazamligi;

jamoat transportida elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishning hamda tabaqalashtirilgan tariflarning afzalliklari va qulayliklari;

jamoat transportida yo‘lkira to‘lovlari amalga oshirilishini nazorat qiluvchi nazoratchilar guruhi faoliyati tashkil qilinayotganligi keng yoritilishini ta’minlansin;

b) tadbirkorlik subyektlari orasida “bosib o‘tilgan yo‘l” va “sifat” mezonlari bo‘yicha bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda jamoat transporti faoliyatini moliyalashtirishning yangi tizimining jozibadorligi va kafolatlangan biznesga aylanayotganligi yuzasidan brifinglar o‘tkazsin.

4. Viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i R.Babayev mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Yo‘lovchilar tashish transportidan (taksidan tashqari) imtiyozli (bepul) foydalanuvchilar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2018-yil 1-iyundagi “Urganch shahar hududida yo‘lovchilar tashish transporti xizmatlarining tarifi to‘g‘risida”gi 382-qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida e’lon qilinsin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari - hokimning matbuot kotibi O.Adambayev mazkur qarorning viloyat hokimligi rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror 2023-yil 1-noyabrdan kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Achilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**

Xorazm viloyat hokimining
2023-yil 28-oktabrdagi
366-12-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog'liq xolda jamoat transportida transport kartalari orqali to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha tariflar

MIQDORI

Tarif rejalarining nomlanishi	**Tarif turlari** (kun)	**Qatnovlar soni**		**Narxi,** so‘m
“AV” avtobus, elektrobus - aholi uchun*	1	5	5	6000
	5	22	22	27000
	10	44	44	54000
	15	66	66	81000
	20	88	88	108000
	30	130	130	160000
	90	390	390	480000
	180	780	780	960000
	365	1582	1582	1948000
“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	5	5	3000
	5	22	22	13500
	10	44	44	27000
	15	66	66	40500
	20	88	88	54000
	30	130	130	80000
	90	390	390	240000
	180	780	780	480000
	365	1582	1582	974000
“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	5	5	3000
	5	22	22	13500
	10	44	44	27000
	15	66	66	40500
	20	88	88	54000
	30	130	130	80000
	90	390	390	240000
	180	780	780	480000
	365	1582	1582	974000

“O‘” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	5	5	3000
	5	22	22	13500
	10	44	44	27000
	15	66	66	40500
	20	88	88	54000
	30	130	130	80000
	90	390	390	240000
	180	780	780	480000
	365	1582	1582	974000

*) Tarif rejalarini narxining hisoblash tartibi: X*1600-23%;

**) Tarif rejalarini narxining hisoblash tartibi: X*1600-23%-50%, bunda:
X – transportda qatnovlar soni;
2000 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qarori bilan chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

Xorazm viloyat hokimining
2023-yil 28-oktabrdagi
366-12-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobusdan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARINING NARXLARI*

Tarif rejalarining nomlanishi	**Almashish turlari**	**Tarif rejalarining narxi,** so‘m
1 soatlik A+A	Birinchi avtobusda to‘lov	1600
	Ikkinchi avtobusda to‘lov	0

* mazkur tarif rejalarining narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to‘lov amalga oshirilganda qo‘llaniladi

Xorazm viloyat hokimining
2023-yil 28-oktabrdagi
366-12-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Yo‘lovchilar tashish transportidan imtiyozli (bepul) foydalanuvchilar

RO‘YXATI

1. 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari bo‘lgan harbiy xizmatchilar.

2. 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs.

3. 1941-1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar.

4. Afg‘oniston Respublikasi va boshqa mamlakatlar hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalmilalchi jangchilar sirasiga kiruvchi fuqarolar.

5. Haqiqiy muddatli harbiy xizmatchilar va shartnoma (kontrakt) bo‘yicha oddiy harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar.

6. Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar.

7. Ko‘zi ojiz nogironlar va ko‘zi ojiz nogironga hamrohlik qiluvchi shaxslar.